**QAYDNOMA №10**
**2022 yil 27 aprel kuni soat 14:00 da Zoom platformasi orqali onlayn o'tkaziladigan ToshPTI Ilmiy Kengashining**

**QAROR LOYIHASI:**

**Kun tartibi:**

**1.** Ma'naviyat – ma'rifat masalalari to'g'risida.

**Ma'ruzachi: ToshPTI Yoshlar bilan ishlash, bo'yicha prorektor M.A. Axmedova.**

**2.** ToshPTI klinikasi faoliyati tahlili. Professor-o'qituvchilarning davolash va tashxislash ishlari holati to'g'risida.

**Ma'ruzachi: ToshPTI Davolash ishlari bo'yicha prorektor A.A. Djalilov.**

**3.** Fakultet kafedralarida ta'lim sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar hamda talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari to'g'risida.

**Ma'ruzachi: ToshPTI Tibbiy pedagogika va davolash ishi fakulteti dekani, t.f.n., dotsent A.R. Valiev.**

**4.** Xorijiy fakultet faoliyati, talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari to'g'risida.

**Ma'ruzachi: ToshPTI Xorijiy fakulteti dekani, PhD S.N. Nurxodjaev.**

**5.** Professor va o'qituvchilarini tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash.

1. RAXMATULLAEV AKMAL ABADBEKOVICh – Fakultet bolalar xirurgiyasi kafedrasi mudiri lavozimiga;
2. NURXODJAEV SABIR NASIRXODJAEVICh - Psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriyasi, tibbiy psixologiya, psixoterapiya kafedrasi dotsenti lavozimiga.

**Ma'ruzachi: Saylov komissiyasi raisi.**

**6.** Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

**Ma'ruzachi: Ilmiy Kengash kotibi.**

**7.** Turli masalalar.

**Ko'rib chiqildi:**

**Birinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi ToshPTI Yoshlar bilan ishlash, bo'yicha prorektor M.A. Axmedova "Ma'naviyat – ma'rifat masalalari" to'g'risida.

**1 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI Yoshlar bilan ishlash, bo'yicha prorektor M.A. Axmedova "Ma'naviyat – ma'rifat masalalari" xaqidagi ma'lumot axborot va ijro uchun qabul qilinsin.

**Ikkinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi ToshPTI Davolash ishlari bo'yicha prorektor A.A. Djalilov "ToshPTI klinikasi faoliyati tahlili. Professor-o'qituvchilarning davolash va tashxislash ishlari holati" to'g'risida.

**2 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI Davolash ishlari bo'yicha prorektor A.A. Djalilov "ToshPTI klinikasi faoliyati tahlili. Professor-o'qituvchilarning davolash va tashxislash ishlari holati" to'g'risida hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Professor-o'qituvchilarni davolash-diagnostika faoliyati bo'yicha institutning barcha kafedralarida ishlar samaradorligi va ilmiy salohiyati oshirilsin;

Klinik kafedralarni bazalar bilan ta'minlanganlik holati bo'yicha institut Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi tomonidan tahlili o'tkazilsin;

Klinik kafedralarni bazalarda dars jarayonlari va davolash-diagnostika faoliyati ustidan qat'iy nazorat o'rnatilsin.

**Uchinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi ToshPTI Tibbiy pedagogika va davolash ishi fakulteti dekani, t.f.n., dotsent A.R. Valiev "Fakultet kafedralarida ta'lim sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar hamda talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari" to'g'risida.

**3 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI Tibbiy pedagogika va davolash ishi fakulteti dekani, t.f.n., dotsent A.R. Valiev "Fakultet kafedralarida ta'lim sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar hamda talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari" to'g'risida hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Talabalar amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishida professor-o'qituvchilarning faolligi oshirilsin;

Mustaqil tayyorgarlik xonalari, pedogoglar tomonidan konsultatsiya o'tkazish kunlarini joriy etish;

Gumanitar, ijtimoy-iqtisodiy, klinika oldi va klinik fanlar bo'yicha DBni qayta topshirish tartibini ishlab chiqish;

Yangi tahrirda tayyorlanayotgan fanlar dasturlarida keltirilgan adabiyotlar ro'yxatini shakllantirishda kafedralar tomonidan fan (fan mavzusi) bo'yicha ARM fondida mavjud bo'lgan o'quv adabiyotlar ro'yxatini inventarizatsiyadan o'tkazish;

Professor-o'qituvchilar tomonidan darslik, monografiya, o'quv qo'llanmalar, xorijiy ilmiy jurnallarda (impakt faktori mavjud xalqaro jurnallarda) Scopus, Science Direct ma'lumotlar bazasidagi xalqaro ilmiy jurnallarda horijiy professor-o'qituvchilar bilan hammualliflikda nashr qilish amalga oshirilsin.

**Turtinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi ToshPTI Xorijiy fakulteti dekani, PhD S.N. Nurxodjaev "Xorijiy fakultet faoliyati, talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari" to'g'risida.

**4 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI Xorijiy fakulteti dekani, PhD S.N. Nurxodjaev "Xorijiy fakultet faoliyati, talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari" to'g'risida hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Institutning jozibadorligi va xalqaro rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi arenasida imidjini yaratish chora-tadbirlari kuchayirilsin;

Institutda xalqaro miqyosidagi fan olimpiadalarini o'tkazish bo'yicha tashkiliy ishlar olib borilsin;

Institut kafedralari professor-o‘qituvchilari tomonidan halqaro hamkorlikdagi konferentsiya, forum, seminar, vebinar, mahorat-darslari o‘tkazish faol amalga oshirilsin;

Kafedra xodimlari horijiy (hamkorlikdagi) loyixalar, horijiy tadqiqot markazlari bilan almashuv dasturlari tuzishga erishish hamda grantlar asosida bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilsin.

**Beshinchi masala bo‘yicha** ma’ruzachi Saylov komissiyasi raisi X.A. Rasulov “Professor va o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash” natijalari to‘g‘risida hisobot berib o‘tdilar.

**5 – masala bo‘yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

Saylov komissiyasi raisi X.A. Rasulov “Professor va o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash” natijalari to‘g‘risida hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**Oltinchi masala bo‘yicha** ma’ruzachi ToshPTI Ilmiy Kengash kotibi tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o‘quv qo‘llanma va uslubiy tavsiyanomalarni o‘qib eshittirdi. Ularning muxokamasi bo‘lib o‘tdi.

**6 – masala bo‘yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI Ilmiy Kengash a’zolari tomonidan tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o‘quv qo‘llnama, monografiya va uslubiy tavsiyanomalar ovozga qo‘yildi va bir ovozdan keyingi bosqichga tavsiya etildi.

**7. Turli masalalar.**

**Kengash raisi**
**t.f.d., professor:** **B.T. Daminov**

**Kengash kotibi**
**t.f.d., dotsent:** **J.B. Sattarov**